

**PSIXOLOGIYADA AGRESSIVLIK MUAMMOSINI O'RGANICH VA  
TA'SIR QILUVCHI OMILLAR**

*Kurbanbaeva Dilfuza Imbetbaevna,  
Pirimbetova Gulayim Keñesbaevna*

*Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Nukus tumani 13 va 14-sonli maktab psixologlari*

Hozirgi paytda agressivlik muommosi psixologiyadagi eng dolzarb mavzulardan biriga aylangan. Insondagi agressivlik holati har qanday sabablarga bog'liq bo'lib, bu holatning psixodiagnostikasi, psixoprofilaktikasi bo'yicha xorijda bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan va ulardan amaliyotchi psixologlarimiz foydalanib kelmoqda. Shunday bo'lsada maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlari va maktab psixologlari so'ngi paytlarda bolalarda agressivlik juda ko'payib ketganini ta'kidlab kelishadi. Bolalarda agressiv harakatlar ayniqsa, ularning o'tish davrida kuzatiladi. Ya'ni har qanday qiyin vaziyatda bolaning yosh krizisi muommolarga to'la bo'ladi.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tarkibida kichik maktab yoshi o'quvchilarining ta'lim jarayonidagi faolligini oshirish, shaxslararo munosabatlarini yaxshilash, axloqiy ko'nikmalar shakllantirilishining psixologik mexanizmlarini takomillashtirish muhim masalalardan hisoblanadi.

Psixologiya va bir qator sohalarda bolalardagi agressiv xulq-atvor va agressiyani tadqiq qilgan tadqiqotchilar A.Bass, L.Berkovitz, E. Fromm, A.Bandura va R.Uolters, R.Beron, D.Richardson, L.M.Semenyuk, G.E.Breslav, I.A.Furmanov, K.S.Shalaginova, Yu.S.Bashkatova, I.F.Nurmuxametova, E.L.Golenisheva, E.I.Berejkova, S.A.Travina, T.P.Smironova va O'zbekistonlik olimlardan E.G'.G'oziev, N.G'.Kamilova, G.Q.To'laganova, F.F.Rasulova kabi tadqiqotchilarning bu boradagi ilmiy qarashlari alohida etiborni tortadi. Ish jarayonida ilmiy adabiyotlarni fanlararo nazariy tahlil qilish, eksperimental mma'lumotlarni statistik qayta ishlash usullari kabi ilmiy tadqiqot usullari qo'llanildi.

Agressiyani chaqiruvchi omillar masalasida quyidagi uchta omil hal qiluvchi ahamiyatga ega:

1. Sub'ekt erishmoqchi bo'lgan maqsadning ahamiyatlilik darajasi;
2. Maqsadga erishish yo'lidagi to'siqning kuchi;
3. Frustratsiyalarning ketma-ket uchrash soni.

Agressiv xulq-atvorning kelib chiqish sabablari haqidagi eng zamonaviy nuqtai nazar bilishning kognitiv nazriyasi bilan bog'liq holda ifodalanadi. Bu konsepsiyada agressiv harakatlar quyidagi jarayonlarning natijasi sifatida baholanadi:

Subyektning o'z agressiv xulq-atvorini ijobiy deb baholashi; frustratsiyaning mavjudligi; affekt yoki stress tipidagi emotsional qo'zg'alishning kuchliligi; P.Kratchild va N.Livson agressiyaning bir-birini inkor etmaydigan ikki xil tavsifini ishlab chiqqanlar:

1. Xulq-atvorning tashqi alomatlariga asoslanadi: "Agressiya – kimgadir ziyon yetkazuvchi xulq-atvorning har qanday ko'rinishidir".

2. Odamning ichki niyatlari bilan bog'liq: "Boshqa bir insonga ziyon yetkazishni maqsad qilib olingan har qanday xatti-harakat – agressiyadir". Agressiyaning yuqorida zikr etilgan tavsiflariga monand tushunchalarga tayangan ko'plab psixologlar agressiyani jonli olamning yashash uchun kurash bilan bog'liq uzviy xarakteristikasi deb ham hisoblaydilar Jozef Bass tomonidan taklif etilgan mulohazalardan biriga asosan, agressiya – boshqalar uchun xavf tug'diruvchi va ularga ziyon yetkazuvchi har qanday fel-atvor ko'rinishidir. Agressiya tushunchasini talqin qilishdagi kelishmovchiliklarga qaramasdan, ijtimoiy fanlar sohasidagi ko'plab mutaxassislar uning ikkinchi nuqtai-nazarda bayon etilgan ma'nosini maqullashga ko'proq moyillik bildiradilar. Agressiya atamasini ko'p hollarda g'azab kabi negativ(salbiy) his-tuyg'ular bilan, haqorat qilish va ziyon yetkazish kabi motivlar bilan, hatto negativ sarasiga kiruvchi irqiy va etnik xurofot bilan ham assotsiatsiyalanadi. Bu omillar esa natijasi zarar yetkazish bo'lgan xulq-atvorda albatta muhim rol o'ynashiga qaramay, ular bunday harakatlar uchun asos bo'la olmaydi. G'azab boshqalarga tajovuz qilish uchun aslo zaruriy shart hisoblanmaydi, ayrim holatlarda agressiya o'ta sovuqqonlik holatida ham yuzaga kelishi mumkin bo'lgani kabi, o'ta kuchli hayajon holatida ham yuzaga kelishi mumkin. Shuningdek, agressorlarning ular tajovuz qilayotgan shaxslardan nafratlanishi yoki ularni yoqtirishi ham umuman shart emas. Ayrim tadqiqotchilar o'tkazgan tajribalarning xulosasiga ko'ra, ko'pchilik odamlar o'zlari yoqtirgan insonlarga zulm o'tqazishlari ma'lum bo'lgan.

Psixologik adabiyotlarda agressiv xulq-atvorning quyidagicha klassifikatsiyalanishi ko'rsatilgan:

1. Agressiyaning dardmandlik darajasidagi alomatlari (tutoqib ketish, jahl kelganda o'zini yo'qotib qo'yish);

2. Agressiyaning jismoniy og'zaki va boshqa, butun jamiyat uchun nomaqbul sanalgan qonun-qoidalarini bilan bog'liq shakllari (odatda, ular ijtimoiylashuv xususiyatlari, aksil ijtimoiy xulq-atvor normalarining mustahkamlanishi bilan bog'liq bo'ladi);

3. Jamiyatda qabul qilingan ahloq qonun-qoidalarini yetarlicha o'zlashtirmaganligi yoki xatti-harakatlarini idora qilish imkonini beruvchi xususiy sifatlarni to'liq shakllanmaganligi (ta'lim-tarbiya ko'rmaganlik) bilan bog'liq agressiyaning turli ko'rinishlari;

4. Ayrim kuzatuvchilar tomonidan agressivlik haq-huquqlarini poymol qilish, bировga ziyon yetkazish gumonini paydo qiladigan, boshqa bir kuzatuvchilar tomonidan qatilylik, faollik sifatida talqin qilinadigan barcha xatti-harakatlar . Agressiyaning tez-tez ifodalanishi shaxsning emotsional holati bo'lib, uning asosini quyidagilar tashkil etadi:

- Asab kasalliklari, inson asab tizimining o'ta charchaganligi.
- Oiladagi psixologik muhitning nosog'lomligi va ota-onalarda pedagogikpsixologik bilimlarning yetishmasligi.
- Shaxsning xarakter xislati, ijtimoiy muhitning yomonlashuvi.

Agressiv xulq-atvor inson bilan vaziyatning o'z-aro ta'siri natijasi hisoblanadi. Agressivlik har bir shaxsda ma'lum miqdorda mavjud bo'ladi, agressivlik darajasi yuqori bo'lgan kishilar boshqalarga nisbatan agressiv reaksiyalarni namoyon etishga ko'proq moyil bo'ladi. Mazkur nazariyalarni bilish bugungi kunda agressiv xulq-atvorni o'rganishga qo'l urgan tadqiqotchilar va maktab psixologlari uchun foydadan holi bo'lmaydi. Maktabda ta'lim olayatgan har bir bola bilan ishlash jarayonida maktab psixologlar bu bilimlarlardan foydalanib vaziyatni ijobiy tarafga o'zgartirishiga ishonamiz.

Amaliyotchi psixologning maktabdagi faoliyati davomida pedagoglar uchun psixologik maslahat amaliy jihatdan muhim fundamental yo'nalish hisoblanadi. Uning maktabdagi barcha ishlarining samaradorligi ko'p jihatdan maktab o'quvchilarida turli muammolarni hal qilishda o'qituvchilar va maktab ma'muriyati bilan keng va konstruktiv hamkorlikni yo'lga qo'yganligi bilan belgilanadi. Shunday ekan, psixologik-pedagogik maslahat turli maktab muammolari va o'qituvchining kasbiy vazifalarini hal qilishda o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlikni tashkil etishning universal shakli sifatida qaraladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Nishanova.Z.T., G.K.Alimova. Psixologik xizmat. Psixokorreksiya. Toshkent -2019. – 435 b.
2. Смирнов.Т.П. Психологическая коррекция агрессивного поведения детей. Ростов-н/Д: «Феникс», 2004. – 160 с.
3. Селиванова Е. А., Кувайцева Е. Ю. Содействие учителю в коррекции агрессивного поведения детей младшего школьного возраста при помощи игротерапии. Научное обеспечение системы повышения квалификации кадров // Научно-теоретический журнал. 2015. № 3 (24) С. 97.